

## NERV SISTEMASINING AHAMIYATI VA UNING TUZILISHINI TAHLIL QILISH

**Begzatova Ayman Erjanovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

**Jumaboyeva Jamila Alimbayevna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

aymanbegzatovna@gmail.com

### ANNOTATSIYA

Nerv sistemasi organizmni boshqaradi va barcha hujayralar, to‘qimalar va organlar ishini o‘zaro muvofiqlashib ishlashini ta‘minlaydi. Nerv sistemasi tashqi va ichki muhit ta‘sirini qabul qiladi va ularga javob beradi. Nerv sistemasiga bog‘liq holda inson kasb-hunar o‘rganadi, ilm oladi, fikrlaydi, eslab qoladi, quvonchi, qayg‘usi va tuyg‘ularini ifodalaydi. Nerv sistemasi joylashuviga ko‘ra markaziy va periferik nerv sistemasiga ajraladi. Markaziy bo‘lim bosh va orqa miyadan, periferik bo‘lim ulardan chiqadigan nervlar va nerv tugunlaridan iborat. Markaziy va periferik bo‘lim bir-biriga bog‘liq holda ishlaydi. Bosh miya va orqa miya ham xuddi shu kabi bir-biriga bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Va biz bu haqidagi tushunchalarni maktabda o‘quvchilarga, institut va universitetlarda talabalarga yana ham chuqur va keng o‘rganishi uchun ko‘maklashishimiz zarur.

**Kalit so‘zlar:** odam, nerv sistemasi, bosh miya, orqa miya.

### АННОТАЦИЯ

Нервная система управляет организмом и обеспечивает согласованное функционирование всех клеток, тканей и органов. Нервная система воспринимает и реагирует на внешние и внутренние воздействия окружающей

среды. В зависимости от нервной системы человек осваивает профессию, учится, думает, запоминает, выражает радость, печаль и чувства. По расположению нервной системы ее делят на центральную и периферическую нервную систему. Центральная часть состоит из головного и спинного мозга, а периферическая – из нервов и отходящих от них нервных узлов. Центральные и периферийные отделы работают взаимосвязано. Головной и спинной мозг функционируют сходным образом. И нам нужно помочь учащимся школ, институтов и вузов глубже и шире изучить эти понятия.

**Ключевые слова:** человек, нервная система, головной мозг, спинной мозг.

### ABSTRACT

The nervous system controls the body and ensures the coordinated functioning of all cells, tissues and organs. The nervous system receives and responds to external and internal environmental influences. Depending on the nervous system, a person learns a profession, learns, thinks, remembers, expresses joy, sadness and feelings. According to the location of the nervous system, it is divided into central and peripheral nervous system. The central part consists of the brain and spinal cord, and the peripheral part consists of the nerves and nerve nodes that come from them. The central and peripheral departments work interdependently. The brain and spinal cord function in a similar way. And we need to help students in schools, institutes and universities to study these concepts more deeply and widely.

**Key words:** human, nervous system, brain, spinal cord.

### KIRISH

Nerv sistemasi orqali biz idrok etamiz, his qilamiz, tuyg‘ularimizni ifodalaymiz, bilim olamiz va h.k. Nerv sistemasi odam va hayvonlar organizmida barcha a‘zolar faoliyatini bir-biriga bog‘lagan holda hayotiy muhim funksiyalarni bajaradigan hamda organizmni tashqi muhit bilan bog‘laydigan sistema. Nerv sistemasi asosini nerv hujayralari tashkil qiladi. Har bir hujayra o‘zidan chiqqan kalta shoxchalar (dendrit),

bitta uzun tola (akson) bilan birga neyron deb ataladi. Nerv sistemasi, asosan, neyronlar to‘plamidan iborat. Nerv sistemasi joylashuviga ko‘ra markaziy va periferik nerv sistemasiga ajraladi. Markaziy bo‘lim bosh va orqa miyadan, periferik bo‘lim ulardan chiqadigan nervlar va nerv tugunlaridan iborat. Bosh miya (cerebrum) yoki oxirgi miya (telencephalon) miyaning katta qismi bo‘lib, tarkibiga bosh miya po‘stlog‘i (bosh miya yarimsharlarining) va gippokamp, bazal o‘zaklar va [hidlov piyozchasi] kabi bir qancha subkortikal tuzilmalar kiradi. Odam miyasida, bosh miya markaziy nerv sistemasining eng yuqori sohasidir. Bosh miya shuningdek tahminan simmetrik chap va o‘ng bosh miya yarimsharlariga bo‘linadi. Orqa miya (lot. medulla spinalis) nerv to‘qimasidan tuzilgan uzun, nozik, naysimon tuzilma bo‘lib, miya ustunidagi uzunchoq miyadan umurtqa pog‘onasining bel sohasigacha davom etadi. U miya suyuqligini saqlovchi umurtqa pog‘onasining markaziy kanalini qamrab oladi. Odamlarda, orqa miya ensa suyagida boshlanadi, katta teshikdan o‘tib bo‘yin umurtqalari boshlanishida orqa miya kanaliga kiradi. Orqa miya pastga qarab birinchi va ikkinchi bel umurtqalari oralig‘igacha kengayib boradi va shu yerda tugaydi.

### TAHLIL

I.M . Sechenov ta’biricha, nerv tizimining faoliyati reflektor xarakteriga ega. Refleks asosida reflektor yoyi yotadi. Reflektor yoyi nerv hujayralari zanjiridan iborat bo‘lib, tarkibiga sezuvchi (afferent) va harakatlantiruvchi (efferent) neyronlar kiradi. Bular orqali nerv impulsi retseptordan ish bajaruvchi a‘zolaiga boradi. Nerv impulsi reflektor yoyida 120 m /sek tezlikda yuradi. Ko‘p hollarda reflektor yoyi tarkibiga uchinchi (oraliq) neyron kirib, sezuvchi neyron bilan harakatlantiruvchi neyronni bir-biriga bog‘lab turadi. Oddiy reflektor yoyi odatda ikki: afferent va efferent neyronidan iborat[4].

Nerv sistemasi organizmni boshqaradi va barcha hujayralar, to‘qimalar va organlar ishini o‘zaro muvofiqlashib ishlashini ta’minlaydi. Nerv sistemasi tashqi va ichki muhit ta’sirlarini qabul qiladi va ularga javob beradi. Nerv sistemasiga bog‘liq holda inson kasb-hunar o‘rganadi, ilm oladi, fikrlaydi, eslab qoladi, quvonchi, qayg‘usi

va tuyg‘ularini ifodalaydi. Nerv sistemasi joylashuviga ko‘ra markaziy va periferik nerv sistemasiga ajraladi. Markaziy bo‘lim bosh va orqa miyadan, periferik bo‘lim ulardan chiqadigan nervlar va nerv tugunlaridan iborat. Markaziy va periferik bo‘lim bir-biriga bog‘liq holda ishlaydi. Bosh miya va orqa miya ham xuddi shu kabi bir-biriga bog‘liq holda faoliyat yuritadi[1].

### **XULOSA**

Demak, nerv sistemasi inson organizmidagi muhim sistema hisoblanadi. U orqali inson organizmi o‘zini o‘zi boshqaradi. Va biz nerv sistemasi tufayli tashqi va ichki muhit ta’sirlariga javob qaytaramiz. Nerv sistemasining vazifaviy tarkibiy birligi bu nerv hujayrasi bo‘lib, u o‘zidan chiqayotgan o‘simtalari bilan birga neyron deb ataladi. Nerv sistemasi markaziy va periferik bo‘limlardan iborat. Markaziy bo‘limga bosh miya va orqa miya kiradi. Bosh miya miya qutisi ichida joylashgan bo‘lib, u 2 ta yarimsharlardan iborat. Orqa miya esa umurtqa pog‘onasi nayida joylashgan. Periferik bo‘lim esam bosh miya va orqa miyadan chiqadigan nerv tolalari va nerv tugunlaridan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mavlonov O., Tilalov T., Aminov B. Odam va uning salomatligi darsligi Toshkent 2019
2. Gadayev A., Mirsharapov U., Odam anatomiyasi Toshkent 2017
3. Qodirov A. Tibbiyot tarixi Toshkent 2005
4. Ahmedov A. Odam anatomiyasi Toshkent 2007
5. Mamatqulov D.A., Azimov L.T., Shaxmurova G.A. Odam anatomiyasi, fiziologiyasi va antropologiya. Noshir 2013.